



## XX ASR 30-YILLAR TANQINDCHILIGINING OYBEK IJODIGA MUNOSABATI

*Mirzamamitova Dildoraxon Shokirjon qizi*

*Andijon davlat universiteti*

*Filalogiya fakulteti, Adabiyotshunoslik yo'nalish*

*1-bosqich Magistranti*

**Abstrakt:** *XX asrda taniqli ko'plab shoir va adiblar bo'lgan bular orasida Oybek o'zining ijodi bilan hammadan ajralib turgan va o'zbek adabiyotida o'zining alohida o'rniga ega bo'la olgan. Ayni shu sababli ko'plab tanqidlarga va bahs munozalarga jalb etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *og'zaki tanqid, yozma tanqid, ijod, tanqidchi, adabiy-madaniy aloqa, jadidchilik.*

**Аннотация:** *Среди многих известных поэтов и писателей XX века Ойбек выделялся своим творчеством среди всех и смог занять особое место в узбекской литературе. По этой причине он вызвал множество критики и споров.*

**Ключевые слова:** *устная критика, письменная критика, творчество, критик, литературно-культурная коммуникация, модернизм.*

**Abstract:** *Among the many well-known poets and writers of the 20th century, Oybek stood out from everyone else with his work and was able to gain a special place in Uzbek literature. For this reason, it has attracted many criticisms and debates.*

**Key words:** *oral criticism, written criticism, creativity, critic, literary-cultural communication, modernism.*



## **Kirish.**

Tanqid haqida gap ketganda uning birinchi lug‘aviy manosini bilib olish lozim. Adabiyotshunos olim B.Valixo‘jayev tanqid atamasi haqida: “Tanqid arabcha – naqada so‘zidan tashkil topgan bo‘lib, muhokama qilmoq, tekshirmoq, o‘rganmoq, nimaningdir haqqoniyligi va to‘g‘riligini isbotlamoq, yutuq va kamchiliklarini belgilamoq va nihoyat, badiiy asarni tahlil qilish, izohlash kabi ma‘nolarni ifodalaydi”, – deb yozadi.

## **Natijalar.**

Olimning ta’kidlashicha, “Badiiy asar haqida ikki xil: og‘zaki va yozma tarzda fikr bildirishni uchratish mumkin”[1] ekan. Zamonaviy tushunchadagi o‘zbek professional adabiy tanqidchilikning shakllanishi XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Yaxshi ma’lumki, yangi hodisaning paydo bo‘lishi uchun mos sharoitning yuzaga kelishi, muayyan zamin zarur. Zero, hech bir narsa yo‘qdan bor bo‘lmaydi, u nimaningdir zaminida vujudga keladi. O‘zbek adabiy tanqidchiligining yuzaga kelishini ta’minlagan bir qator omillar mavjud bo‘lib, ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Boy adabiy meros, og‘zaki va yozma adabiy tanqid an‘analarning mavjudligi.
2. XX asr boshida yuzaga kelgan ijtimoiy-tarixiy sharoit.
3. Jadidchilik g‘oyalari ta’sirida adabiyotning yangilanishi, jadid matbuotining paydo bo‘lishi.
4. Adabiy-madaniy aloqalar, tashqi ta’sir.

Oybekning ijodi ham ayni ushbu davrlarga to‘g‘ri keladi. Uning ijodiga taniqli munaqqid Ozod Sharafiddinov baho berar ekan, Oybek is’tedodining olmos



qirralaridan biri – uning adabiyotshunoslik va tanqidchilik faoliyatida yarqirab ko‘rinishidir – deya e’tirof etadi.

Oybek lirik shoir, yozuvchi va nafaqat tanqidchi hamdir. Oybekning ijodiga bo‘lgan tanqidiy qarashlar aynan o‘zi yashab ijod qilgan vaqtlardan oq boshlangan. Uning 1927-yil “Qizil O‘zbekiston” gazetasida Cholpon “Shoirni qanday tekshirish kerak?” nomli maqolasi bosilib chiqadi. Bu maqola Ayn (Olim Sharafiddinov) ning Ozbek shoirlari. Cholpon maqolasiga javob tarzda yozilgan edi. Oybekning Cholpon shoirni qanday tekshirish kerak nomli maqolasi bosilib chiqqanidan so‘ng unga qarshi Qizil Ozbekiston 1927-yil 22, 23, 27-iyun sonlarida Usmonxon Munaqqidning munaqqidi chop etiladi. Ushbu maqolada “...Oybek o‘z maqolasidagi fikrlarni so‘nggiga do‘vur o‘ylamasdan, bu fikrlardagi bor chigalliklarni sezmasdan, xullasi, uning mavzuini yoziladurg‘an maqoladagi nozik javobgarlikni andisha qilmasdan yoza bergan. Mana shuning uchun bo‘lak yanglishlaridan boshqa, Oybek “Ayn”ni tanqid qilaman deb kelib-kelib o‘z mayliga qarshi, yana “Ayn”ning ostonasiga bosh qo‘yadi.” Va “Oybekning Cho‘lpong‘a qarshi asosan “Ayn”ning qarashidan ayirilmasa, Oybekning maqolasi quruqqa chopib qola beradimi? Yo‘q, Oybek o‘z ustozini Cho‘lpong‘a haq: yozishda bir narsani yozdi-da, lekin bu yozilg‘an narsa orqasida bo‘lak chin tilagin berkitadi. Oybekning mana shu berkitgan chin tilagi tahliliga o‘tmasdan turib, “munaqqidi”mizning bo‘lak fikriy evara-chevaralarini oyoq ostidan yig‘ishtirib qo‘yayliqki, bular erkin yurishga xalaqit bermasinlar. Usmonxonga javoban Oybek “Munaqqidning munaqqidi maqolasining egasiga” nomli maqolasida “Usmonxonning “faylasufnamo” kallasi shu fikrimni ham durustkina tushunmabdirki, “shoirning hurligiga tegish gunoh deguvchilar ham yo‘q emas” deb ko‘zining shohsoqqasini o‘ynatqanga o‘xshaydi.” -deya yozadi. Yana bu maqolada Oybek ba‘zi bir xatolarini tan oladi, yani “Har kimning ham yanglishishi mumkin. Ayniqsa, men kabi yosh “Cho‘lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalari o‘qiladi,



voz kechilmaydi” deyishi zo‘r xato.” Bu o‘rinda Oybek o‘z xatolarini tan olish bilan birga, o‘z ijodi namunalari ham himoya qilgan.

Tanqid deganda biz faqat bir yoqlama nazar bilan ko‘rishga odatlanganmiz yani ijodkor haqidagi salbiy fikrlargina tanqid bo‘la oladi deb o‘ylaymiz aslida esa tanqid so‘zining istilohiy manosi asarning mazmun mohiyatini ochish, g‘oyaviy badiiy qiymatini belgilash yutuq va kamchiliklarini holis ko‘rsatgan holda baho berish maqsadida muhokama qilmoq tarzda tushunilgani to‘g‘riroq bo‘ladi. Misol uchun Ozod Sharafiddinov “Millatni uyg‘otgan adib” maqolasida Oybek shaxsiyatiga shunday baho beradi: “XX asrda ikkita komil inson bo‘lsa, ularning biri Oybekdir, agar bitta bolgan bolsa u ham Oybekdir.”

Ijodkor shaxs sifatida jamiyatdan bir qadam oldinda yuradi, kelajakni bashorat qila oladi, chunki unda ijodkorlik meni bor. U hech narsaga loqayd emas. Toshmuhammad o‘g‘li ham o‘z jamiyatini anglay olgan ijodkordir. Uning “Qutlug‘on” romani qahramonlari haqida O.Sharafiddinov yana shunday deydi “Unda faqat Yo‘lchi, Mirzakarimboy kabi yetakchi qahramonlarga emas, boshqa ikkinchi darajali personajlar ham g‘oyatda mukammal ishlangan — ularning hammasi o‘zining betakror belgilariga ega. Romanda ular qanday o‘rin tutishlaridan qat‘i nazar, bir umrga kitobxon xotirasida muhrlanib qoladi. Tabiiyki, yozuvchi ular o‘rtasida Yo‘lchiga alohida o‘rin beradi, uni benihoya iliq mehr bilan tasvirlaydi. Syujet rivojida Yo‘lchi xarakteri asta-sekin ochila boradi va undagi fazilatlar marjondek tizilib, Yo‘lchining ichki dunyosini tugal ochib beradi. U ko‘p fazilatlar egasi, lekin bu uni ideal obrazga aylantirmaydi. Muallifning mahorati shundaki, u Yo‘lchi obrazini tasvirlashda romantik chizgilar va ranglarni bemalol ishlatishdan cho‘chimaydi, lekin ayni chog‘da hech bir nuqtada realizm qonunlaridan biron marta ham chekinmaydi.” Bundan ko‘rinadiki Oybekning ijodi nafaqat XX asr 30-yillarida balki undan keyin ham taniqli insonlar orasida muhokamalarga sabab bo‘lib kelgan.



## XULOSA.

Bundan ko‘rinadiki Oybekning ijodi ushbu davrda ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Bazilar ijobiy fikr bersa boshqalar esa aksincha salbiy munosabatda bo‘lgan, shu bilan birga yozuvchi o‘z ijodiy namunalari himoya qilgan ekan xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tan ola bilishni ham bilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Б.Валихўжаев. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: 1993. – Б.7.
2. Д.Куроноф. Жаҳон адабиётига йўл // Жаҳон адабиёти, 1997. – № 6. – Б.168.
3. Кодиржонов , О. ., & Муминов , Х. (2023). Особенности политических и экономических отношений между Узбекистаном и Китайской Народной Республикой. *Общество и инновации*, 4(5), 78–82. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5-pp78-82>